

Boshlang'ich sinflarda dars bosqichlarini o'stirish tajribasidan

*D. Azizova,
Qashqadaryo VXTXQTMOI*

Dastur materiallaridagi bir soatlik dars mazmunini hozirgi zamon didaktikasi talablari asosida bayon etish dars turi deb ataladi.

Boshqacha qilib aytganda, bu o'quvchilarga bilim, ko'nikma va malakalar berish sohasida olib boradigan ta'lim shaklidir.

Bu dars umumta'lim maktablarida eng ko'p qo'llanilib, u quyidagi turlarga bo'linadi:

- yangi bilimlarni bayon qilish;
- o'tgan mavzularni mustahkamlash;
- o'quvchilar bilimi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish;
- takrorlash va bilimlarni bir tizimga keltirish;
- aralash darslar.

Dars turining tuzilishi, odatda, uning tarkibi yoki qismlari deb, yuritiladi. Dars tarkibining birinchi qismidan ikkinchi qismiga o'tish va bu orqali darsning shakli hamda uslublarini o'zgartirib borish tizimiga dars bosqichi deb ataladi.

Aralash dars turi tarkibini quyidagilarga bo'lish mumkin:

- uy vazifasini so'rash va tekshirib ko'rish;
- yangi mavzuni bayon etish;
- yangi mavzuni mustahkamlash;
- uyga vazifa berish.

So'nggi yillar davomida o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini takomillashtirib borilishi natijasida bu sohada anchagina tajribalar o'rtirildi. Hozirgi zamon ta'lim nazariyasida birinchi bir yangi nazariyalar vujudga keldi.

Mazkur o'qitishning mantiqiy uslublarini ishlab chiqishda o'zbek olimlarining xizmatlari nihoyatda katta. Shu davrda darslarni turlarga bo'lib o'qitish masalalariga doir ko'pgina ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi.

Shu ishlarga asoslanib hozirgi zamon darslarini quyidagi turlarga bo'lib o'qitish maqsadga muvofiq deb topiladi:

- kirish;
- yangi mavzular bilan tanishtirib borish;
- yangi mavzularni o'zlashtirib borish;
- olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
- o'quvchilar bilimi, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash;
- takrorlash va bilimlarni umumlashtirish;
- nazorat darsi;
- mavzuni hayotga bog'lash.

Dars jarayoning 6 bosqichi.

Dars- bu o'quvchilarga bilim berishning tashkiliy shakli bo'lib, u biron- bir didaktik maqsadni amalga oshirishga qaratilgan jarayondir.

Dars tuzilmasi — o'quvchilarga bilim berish jarayonining ayrim bosqichlari, mavzusi yoki didaktik maqsadlarini aniqlab, yakuniy natijalarga erishishdir.

Dars bosqichlari — biron- bir yakunlangan darsning ma'lum qismi bo'lib, unda o'quvchilar faoliyatini tashkil etish mazmuni, usul va metodlari hamda uning natijalarini didaktik nuqtai nazardan hal etib borilishi.

Dars bosqichlarini aniqlash — o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni yodda saqlash, uni qo'llash bo'yicha olingan bilimlarni umumlashtirib, bir tizimga keltirish asosida olib boriladigan ish jarayonidir.

Dars bosqichi va uning maqsadlari mundarijasi:

1-bosqich. Tashkiliy qism. Darsni tashkil etish va uning boshlanishi.

Maqsad: Darsda o'quvchilari ishga tayyorlash.

2 — bosqich. Uyga berilgan vazifalarni ko'rib chiqish. Sinfni o'qitish va o'quvchilarni faol ishlashga tayyorlash.

Maqsad: sinfni shunday faoliyat turiga tayyorlash kerakki, u darsning asosiy bosqichlarida ustunlik qilsin. O'quvchilarni darsda dolzarb muammolarni hal etishga o'rgatib borish. Barcha yoki bir necha o'quvchilar tomonidan uy vazifalarni to'g'ri va ongli ravishda bajarilganligini aniqlash hamda mavjud kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish bilan birga kelajakda shu bilim, ko'nikma va malakalarni muntazam takomillashtirib borish.

3 — bosqich. Yangi bilimlarni o'zlashtirish.

Maqsad: o'rganilayotgan muammo va ularning mohiyati haqida tasavvurga ega bo'lish, ular asosida ko'nikma va malaka hosil qilish. Yangi mavzuni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilganligini dastlabki bosqichini tekshirib borish.

Maqsad: yangiliklar hamda mavjud kamchiliklarni ongli ravishda idrok etilganligini aniqlash. Shu asosda navbatdagi bosqichga o'tish mumkin yoki mumkin emasligini hal etib borish.

4 — bosqich. Egallangan bilimlarni mustahkamlash.

Maqsad: egallangan bilimlarni hayotga tadbiq etish va uni takrorlab borishni tushuntirish.

5- bosqich. Darsga yakun yasash. Uyga vazifa berish.

Maqsad: faoliyat usullari olingan ijobiy bilimlarni tahlil qilish, bilim va ko'nikmalardagi mavjud kamchiliklarni ko'rsatib borish. Uy vazifasi haqida axborot berish va uni bajarish bo'yicha kerakli maslahatlarni berib borish.

Maqsad: yangi mavzuni o'zlashtirish natijalari asosida o'quvchilarga uyga vazifa berish va shu bilimlarni muntazam rivojlantirib borishga yo'naltirish.

6 — bosqich. Bilimlarni nazorat qilish, baholash.

Maqsad: bilimlarni chuqur va har tomonlama tekshirib borish, uning natijasida aniqlangan xato va kamchiliklarning kelib chiqish sabablarini aniqlab, shu asosda har bir o'quvchining mustaqil bilim olishini tashkil etish.

Dars bosqichlari quyidagicha shakllantilishi mumkin.

Darsning maqsadlari:

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarga salomalashish odobini o'rgatish, Tolib Yo'ldoshning "Odobning boshi — salom" she'rini ifodali o'qitish.

Tarbiyaviy maqsad: O'quvchilarga o'zbekona salomalashish, so'rashish odobini, "Assalomu alaykum", "Vaalaykum assalom" so'zlarining ma'nosini tushuntirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning milliy urf –odatlarimiz haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi, sayohat darsi.

Darsning metodi: suhbat, tarmoqlash, mustaqil ish, raqobatlashtirish.

Darsning jihozi: ko'rgazma qurollar, tarqatma varaqalar, plakatlari, hayvonlar rasmlari.

Darsning borishi:

a) **tashkiliy qism:** salomlashish, o'quvchilarni darsga jalb qilish.

O'qituvchi: bolajonlar hozir qaysi dars?

O'quvchilar xor bo'lib:

Odob ahloqdan ta'lim olgaymiz,

Ustoz o'gitin yodda saqlaymiz.

O'qituvchi: darsimiz shiori nima?

O'quvchilar xor bo'lib:

Odobli bola hammaga manzur,

Uni ko'rganda qilasan huzur.

O'qituvchi: navbatchining hisobotini eshitamiz.

Navbatchi sana, davomat haqida hisobot beradi.

O'qituvchi: bolalar, bugun biz "Ertaklar olamiga"ga sayohat qilamiz. Siz qanday ertaklarni bilasiz?

O'quvchilar bilgan ertaklarini sanashadi.

Ma'naviyat daqiqasi.

O'qituvchi: Hozir men sizga rus xalq ertaklaridan "Bo'g'irsoq" ertagini aytib beraman. Lekin, mana bu savollaringa javob berishingiz kerak.

Savollar:

1. Ertaklar qaysi son bilan boshlanadi? (1)
2. Eng katta bir xonali son qaysi? (9)
3. Alisher Navoiy bobomiz nechanchi fevralda tug'ilgan? (9)
4. Eng kichik bir xonali son qaysi? (1)

O'quvchilar savollarga javob berishadi.

O'qituvchi: bolalar qaysi son kelib chiqdi? Vatanimiz tarixida shu yili qanday qutlug' sanalar esda qoldi?

1- o'quvchi: 31-avgust – Vatanimiz mustaqil beb e'lon qilindi.

2- o'quvchi: 1- sentabr – Mustaqillik bayrami deb e'lon qilindi.

O'qituvchi: Barakalla. Ana endi ertagimizni boshlaymiz. Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadim zamonda chol bilan kampir bor ekan. Chol bir kuni kampirga:

- Kampirjon, bo'g'irsoq pishirib ber, - debdi.
- Pishirib bermayman, - debdi kampir.
- Nima uchun pishirib bermayman deyapsan? – debdi chol.
- Agar mana bu bolalar odobnoma darsi nimalarni o'rgatishini aytib bersagina pishirib beraman, - debdi kampiri.

Bolalar, boboga yordam beramizmi? Qani odobnoma darsida nimalarni o'rganayotganligimizni aytib beringlar.


O'quvchilar bilganlaricha javob berishadi. Masalan:

O'quvchi: Odobnoma fani bizga salomlashish, kiyinish, yurish, so'zlashish odoblarini o'rgatadi.

O'qituvchi: Barakalla bolalar. Shunday qilib kampir bo'g'irsoq pishirishga ketibdi. Bo'g'irsoq nimadan tayyorlanadi?


O'quvchilar bilganlaricha javob berishadi. O'qituvchi javoblarni to'ldirib boradi.

Bolalar, onaxon sizga yana bir topshiriq berib ketdi. Bo'g'irsoq pishgunicha o'quvchilar mana bu bo'g'inlardan so'zlar tuzsin deb shart qo'ydi.



O'quvchilar bo'g'inlardan so'zlar tuzishadi.

O'qituvchi: Sizlar so'z tuzguningizcha kampir mana bu bo'g'irsoqni pishirib kelibdi va uni deraza tokchasiga qo'yib ketibdi. Chol boboni ishi tugayvermabdi. Bo'g'irsoq turaverib zerikibdi va derazadan bir sakrab pastga tushibdi. O'rmon oralab, qo'shiq kuylab keta boshlabdi.



Dam olish daqiqasi


Men bo'g'irsoq, bo'g'irsoq, surpadagi un-urvoq.
Supurishib oldilar, xamir qilib qordilar.
Pishirdilar tovada, sovutdilar havoda,
Qochib ketdim bobomdan, qochib ketdim buvimdan.

Bolalar ushbu qo'shiqni jismoniy harakatlar bilan bajarishadi.

Shunda oldidan quyon chiqib qolibdi va bo'g'isoqqa:

- salom bo'g'irsoqjon yaxshimisan? Qornim ochib turibdi seni yeyman, - debdi.

- meni yemagin, senga qo‘shiq aytib beraman, - debdi bo‘g‘irsoq.




- Qo‘shiq kerak emas, bolalar mana bu konvertdagi savollarga javob berishsa seni yemayman,- debdi quyoncha.
- Bolalar bo‘g‘irsoqqa yordam beramizmi?

O‘tilgan mavzular yuzasidan savollar:

1. Mening oilam she‘rini kim yozgan?
2. Inson o‘z oilasini nima uchun yaxshi ko‘radi?
3. Siz oilada nima ishlar qilasiz?
4. Sizning oilangiz ahilmi?
5. Sizning oila necha kishidan iborat?


O‘quvchilar savollarga javob berishadi.

O‘qituvchi: Bo‘g‘irsoq yo‘lida davom etibdi, oldidan ayiq chiqibdi:




- Bo‘g‘irsoqjon yaxshimisan? Juda vaqtida uchradingda, qornim ochib turgandi seni yeyman,- debdi.

- Meni yemagin, senga qo‘shiq aytib beraman, - debdi bo‘g‘irsoq.
- Qo‘shiq kerak emas, bolalar mana bu topshiriqlarga javob berishsa seni yemayman,- debdi ayiq.



- Bolalar bo‘g‘irsoqqa yordam beramizmi?



O‘quvchilar topshiriqni bajarishadi.



O'qituvchi: shunday qilib, ayiq ham bo'g'irsoqni yemabdi. Bo'g'irsoq yana yo'lida davom etibdi. Yurib-yurib charchabdi. O'tirib dam olmoqchi bo'libdi. Bolalar ham dam olishsin.

Dam olish daqiqasi.

Assalom Quyosh bobo,
Hammaga kerak bobo.
Doim kulub turasiz,
Yerga hayot berasiz.
Ta'zim aylaymiz sizga,
Nurli Quyosh bobojon,
Siringiz oching bizga.
Sirli Quyosh bobojon.

Qo'shiq jismoniy harakatlar bilan kuylanadi

O'qituvchi: Bo'g'irsoq yo'lida davom etibdi, uning oldidan bo'ri chiqib qolibdi va bo'g'irsoqqa:

- Bo'g'irsoq yaxshimisan? Ochqab turgandim seni yeyman,- debdi.
- Meni yemagin, senga qo'shiq aytib beraman, - debdi bo'g'irsoq.
- Qo'shiq kerak emas, bolalar Tolib Yo'ldoshning "Odobning boshi
- salom" she'rini tinglashib, o'qituvchining savollariga to'g'ri javob berishsa seni yemayman,- debdi bo'ri.

Bolalar savollarga javob beramizmi?

"Odobning boshi – salom" Tolib Yo'ldosh.

Yo'l ustida uchragan
Kishiga bersang salom.
Alik olib avvali, so'ngra
Der: "Raxmat, bolam".
Salomsiz o'tsang,
Sho'rlik soqov ekan der.
Tiling bo'lgach albatta,
Kattalarga salom ber.

O'qituvchi o'quvchilar bilan she'r haqida savol- javob o'tkazadi.

O'qituvchi: Barakalla bolalar. Bo'g'irsoqqa juda katta yordam berayapsiz. Shunday qilib, bo'g'irsoq yana yo'lida davom etibdi. Oldidan tulki chiqib qilibdi va bo'g'irsoqqa shunday bebdi:

- Bo'g'irsoq yaxshimisan? Qornim ochib turibdi seni yeyman.
- Meni yemagin, senga qo'shiq aytib beraman, - debdi bo'g'irsoq.
- Qo'shiq kerak emas, bolalar mana bu konvertdagi savollarga javob berishsa seni yemayman,- debdi tulki. Bo'g'irsoqqa yordam beramizmi?

Tarqatma varaqalar topshiriladi. Varaqalarda turli rasmlar tasvirlangan. O'quvchilar rasm asosida gaplar tuzishadi.

O'qituvchi: Bo'g'irsoq aylanib-aylanib yana chol bilan kampirning uyiga kelibdi va shunday debdi:

- Salom bobojon, salom buvijon, men yana qaytib keldim. Bolalar menga yordam berganligi uchun o'rmondagi hayvonlar meni yeyisha olmadi. Endi men

sizning dasturxoningiz koʻrki boʻlaman. Menga yordam bergan bolalarga esa, mana bu boʻgʻirsoqchalarimdan beraman.

Faol qatnashgan oʻquvchilar boʻgʻirsoqchalar bilan ragʻbatlantiriladi.

Uyga vazifa.

Sheʼrni oʻqib kelish.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. I.A.Karimov. Yuksak maʼnaviyat-yengilmas kuch.-T.: 2008. 75-171 b.
2. YuNISEF. Samaradorlikni aniqlash amezonlari. -T.: 2005. 48-103 b.
3. O.Roziqov va boshqalar. Taʼlim texnologiyasi. -T.: Oʻqituvchi. 1999. 14-54 b
4. A.Choriyev. Yangi pedagogik texnologiyalar. –Qarshi. 2000.
5. M.Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. –Qarshi. Nasaf. 2000. 20-43 b
6. N.Boymurodov. Taʼlim samaradorligini oshirish. –Qarshi. 2000.
7. T.Gʻafforova. Boshlangʻich taʼlimda innovatsion texnologiyalar. Tafakkur nashriyoti, 2011. 11-128 b.
8. T.Gʻafforova va b.q. Oʻqish kitobi. 1-sinf, -T.: 2012.
9. T.Gʻafforova va b.q.Oʻqish kitobi. 2-sinf, -T.: 2012.
10. M.Umarova va b.q. Oʻqish kitobi. 3-sinf, -T.: 2012.
11. S.Matjonov va b.q. Oʻqish kitobi. 4-sinf, -T.: 2011.
- 12.«Boshlangʻich taʼlim» jurnali. 2012- yil 3-son.